

KUTUBXONA – MA’RIFAT VA MA’NAVIYAT MASKANI SIFATIDA

Mexriban Usnatdinova

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institut

Nukus filiali talabasi

Dilbar Aytimova

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Nukus filiali katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17647934>

Annotatsiya: Mazkur maqolada kutubxonaning jamiyat hayotidagi o‘rni, uning ma’naviy va ma’rifiy ahamiyati tahlil qilingan. Kutubxona inson tafakkurini boyituvchi, yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantiruvchi muhim maskan sifatida ko‘rsatiladi. Shuningdek, zamonaviy kutubxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion yondashuvlar va axborot madaniyatini rivojlantirish masalalariga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: kutubxona, ma’naviyat, ma’rifat, axborot madaniyati, yoshlar tarbiyasi, raqamli texnologiya, kitobxonlik, madaniyat, bilim manbai.

Jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri, ma’naviy va ma’rifiy yuksalishdir. Shu jarayonda kutubxonalarning o‘rni beqiyosdir. Kutubxona, nafaqat kitob saqlanadigan joy, balki inson ongini boyituvchi, ilm-fan, madaniyat va ma’naviyatni avloddan avlodga yetkazuvchi muqaddas maskandir. Bugungi kunda axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan bir paytda ham kutubxonalar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, yangi vazifalar bilan boyib, jamiyatda ma’naviy-ma’rifiy markazga aylanmoqda. Kutubxona insonning fikrlash madaniyatini, bilim olish ehtiyojini qondiruvchi muhim muassasadir. U yerdagi har bir asar, ilm manbai, ma’naviyat urug‘idir. Kutubxona faoliyati faqat kitob o‘qish bilan cheklanmaydi, u odamlarni bilim olishga chorlaydi, ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Ayniqsa, yoshlar uchun kutubxona, to‘g‘ri yo‘lni topishdagi rahbar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rgatuvchi ma’rifat maktabi hisoblanadi. Bu jihatdan kutubxona nafaqat axborot manbai, balki inson qalbi va ongini tarbiyalovchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’naviyat-millatning ruhi. Millatni ma’naviy jihatdan yuksaltirishda kutubxonalarning xizmati beqiyos. Ular orqali xalqning tarixi, madaniyati, adabiyoti va an’analari saqlanadi hamda yosh avlodga yetkaziladi. Kutubxona xodimlari faqat kitob beruvchi emas, balki ma’naviy targ‘ibotchi, axborot yetkazuvchi va zamon talabiga mos shaxs bo‘lishi lozim. Ular fuqarolarning axborot ehtiyojini qondirish bilan birga, ularni vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik ruhida tarbiyalaydilar. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari asrida kutubxonalar oldida yangi vazifalar paydo bo‘lmoqda. Endilikda kutubxona faqat kitob saqlanadigan joy emas, balki axborot markazi, ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi tizim, madaniy-ma’rifiy faoliyat yurituvchi maskan sifatida rivojlanmoqda. Zamonaviy kutubxonalar faoliyatida raqamlashtirish (digitallashtirish) jarayoni muhim o‘rin tutadi. Kutubxona fondlaridagi noyob asarlar, qo‘lyozmalar, tarixiy hujjatlar elektron shaklga o‘tkazilib, elektron kataloglar va ma’lumotlar bazalari yaratilmoqda. Bu esa foydalanuvchilarga istalgan vaqtda, istalgan joydan turib ma’lumot olish imkonini beradi. Shuningdek, onlayn kutubxonalar, virtual o‘qish zallari, mobil ilovalar kabi yangicha shakllar joriy etilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi kutubxonalari ham hozirda o‘z fondlarini elektron shaklda taqdim etish tizimini yo‘lga qo‘ymoqda. Zamonaviy kutubxonachilikda yana bir muhim yo‘nalish, axborot-kommunikatsiya madaniyatini shakllantirishdir. Kutubxona foydalanuvchilarga faqat kitob emas, balki axborotni izlash, tahlil qilish va to‘g‘ri foydalanish

ko'nikmalarini o'rgatadi. Bu, o'z navbatida, yoshlarning mustaqil fikrlashi, ijodiy izlanishi va tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi. Innovatsion yondashuvlarning yana bir muhim jihati, ijtimoiy loyihalar va madaniy tadbirlar orqali kutubxonani jamoatchilik hayotiga yaqinlashtirishdir. Kutubxonalar hozirda "ochiq maydon" konsepsiyasiga asoslanib, kitobxonlar klublari, seminarlar, uchrashuvlar, madaniy kechalarni o'tkazish orqali o'z faoliyat doirasini kengaytirmoqda. Shuningdek, zamonaviy kutubxona xodimlari o'z kasbiy mahoratini oshirish, yangi texnologiyalarni o'rganish va ulardan samarali foydalanish orqali kasbiy innovatorlarga aylanmoqda. Bugungi kunda kutubxonachi, axborot resurslarini boshqaruvchi, foydalanuvchini to'g'ri yo'naltiruvchi, madaniyat targ'ibotchisidir. Zamonaviy kutubxona, raqamli axborot muhiti, ma'naviy-ma'rifiy maydon va madaniyatni rivojlantiruvchi institutdir. Unda nafaqat kitob, balki inson tafakkuri, ma'naviy boylik, tarix va zamon ruhi uyg'unlashadi. Shu sababdan har bir jamiyat o'z kutubxona tizimini modernizatsiya qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilashi lozim.

Elektron kutubxonalar, onlayn bazalar, virtual o'qish zallari, bularning barchasi bilim olish imkoniyatini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy kutubxonalar o'z ma'naviy vazifasini saqlab qolgan holda yangi axborot muhitini yaratmoqda. Shunday ekan, zamonaviy kutubxona nafaqat axborot markazi, balki madaniyat va ma'rifatni birlashtiruvchi ijtimoiy institut sifatida rivojlanmoqda. Kutubxona, millat ma'naviyatining ko'zgusi. U inson qalbida ma'rifat chirog'ini yoqadi, ilmga mehr uyg'otadi, vatanparvarlik va insoniylik tuyg'usini mustahkamlaydi. Shu boisdan ham kutubxona faoliyatini qo'llab-quvvatlash, uni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish har bir jamiyatning ustuvor vazifasi bo'lib qolishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Aytimova. D. A. (2023). Effective Use of Pedagogical Technologies in Teaching Library Studies. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(5), 40–43. Retrieved from <https://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1422>
2. Aytimova, D. Bibliografiyani oqitiwda innovatsiyaliq sabaqtin ahamiyeti. Евразийский журнал академических исследований, 3(10), 150-152. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/22044>
3. Aytimova, D. The significance of an innovative lesson in teaching bibliography. Eurasian Journal of Academic Research. <https://doi.org/https://doi.org/10.5281/zenodo.10020566>
4. Aytimova, D. From the history of the formation and development of the first libraries in Karakalpakstan. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(5), https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol28_iss5/a49-53
5. Aytimova, D. Kutubxona axborot muassasalari faoliyatini rivojlantirishda kutubxonachi kadrlarining roli. <https://hemis.uzdsmi-nf.uz/science/publication-scientific-edit?id=339>
6. Aytimova Dilbar. Malimleme kitapxana makemelerinde elektron resurslardi huquqiyo qorgawdin aktual maselerleri. Евразийский журнал академических исследований, 3(12), 31-35. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/24074>
7. Ahmedov A. Kutubxonashunoslik asoslari. — Toshkent: Fan, 2019.
8. Karimova M. Axborot madaniyati va kutubxona. — Toshkent: Universitet, 2020.